



OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI




TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI

TURKSHUNOSLIK FAKULTETI

TURK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTON TURKSHUNOSLARINING I FORUMI”

materiallari to'plami



TOSHKENT - 2024

21. Фарход Гисаров “Уйғур тилидаги ўсимлик номлари арабизмлари ва улардаги фонетик ўзгаришлар”	157
22. Xaydarova Ra'no Anvarovna “Talaba qizlarda vatanparvalik fazilatini rivojlantirishda loyiha texnologiyalarini ahamiyati”	164
23. Hoshimov Akmal Sadilayevich “Turk tilshunosligida yevropa tillaridan o‘zlashma so‘zlarning tadqiqi”	172
24. Alimardanov Elyor Ilhom o‘g‘li “Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek va turkman tillarining ba’zi fonetik xususiyatlari”	180
25. Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li ““Qutadg‘u bilig” asari va uning bugungi kundagi ahamiyati”	195
26. R.M.Madaminova “Hofiz Xorazmiy “Devon”idagi maishiy leksika” ...	202
27. Абдуллаев Улуғбек Артикбаевич “Амир Темур ва Йилдирим Боязид муҳорабасининг халқаро аҳамияти”	208
28. Phd. Maxamadjon Aripov “Turk tilining bugungi holatiga bir nazar” .	218

Devletov R. R. Tyurkizmi v Ukraynskom i Russkom yazıkah. – Simferopol: 2001. – 104 s.

Tekin Talat Dil Reformu ve Öbür Türkçeler Dil Devriminden Bu Yana Türkçenin Görünümü. – Ankara: Dil Derneği Yayınları, 1997. – S. 14.

XORAZM DIALEKTAL ZONASIDAGI O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARINING BA‘ZI FONETIK XUSUSIYATLARI

Alimardanov Elyor Ilxom o‘g‘li
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
alifiroqiy.95@gmail.com

Annotatsiya. Turkiy lingvistik arealning tarkibiy qismi o‘laroq o‘zbek tili massivi ilk bor ilmiy-nazariy jihatdan A.Jo‘rayev tomonidan dialektal zonalaraga ajratilgan (Джурьев, 1991). Dialektal zona mavjud til massivida fokus nuqta (tayanch dialekt) ta’siri doirasida bo‘lgan bir nechta lahja va tillarni birlashtiruvchi lingvistik arealdir. A.Jo‘rayev o‘zbek tili massivini 11 ta dialektal zonaga hamda 7 azonal hududlarga ajratadi (Джурьев, 1991). Mazkur massivning Xorazm viloyati, Janubiy Qoraqalpog‘iston (To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Amudaryo) tumanlari hamda Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati(dagi o‘zbeklar yashaydigan) hududlarini Xorazm dialektal zonasi tarkibiga kiritadi. Xorazm dialektal zonasida o‘zbek tilining o‘g‘uz va qipchoq shevalari, shuningdek, qozoq, qoraqalpoq va turkman tillarida muloqot qiluvchi aholi yashaydi hamda dialektal zonaning fokus nuqtasi (tayanch dialekti) sifatida Urganch va Xiva shaharlari shevalari atrof o‘g‘uz, qipchoq shevalariga, shuningdek, qozoq, qoraqalpoq va turkman tillariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Biz maqolada A.Jo‘rayevning [Джурьев 1991] o‘zbek tili massivini dialaktal zonalarga ajratilishi asosida ish ko‘ramiz.

Xorazm dialektal zonasidagi tarixan turkiy tillarning o‘g‘uz guruhiga mansub o‘zbek va turkman tillarida umumiy va farqli jihatlar (izoglassalar) mavjud. Bu kabi umumiy va farqli jihatlar fonetikada yaqqol namoyon bo‘ladi. Maqolada Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek va turkman tillari uchun umumiy bo‘lgan ba’zi fonetik xususiyatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, turkman tili, Xorazm dialektal zonasi, o‘g‘uz lahjasi, qipchoq lahjasi, fonetika, unlilar, undoshlar.

Аннотация. Узбекский языковой массив, входящий в состав тюркского языкового ареала, первоначально был концептуально и научно классифицирован на диалектные зоны А. Джураевым [Джураев, 1991]. В существующем языковом массиве диалектная зона — это языковая область, объединяющая множество диалектов и языков под влиянием базового диалекта. Узбекский языковой массив А. Джураевым разделен на семь азональных регионов и одиннадцать диалектных зон [Джураев, 1991]. В

состав Хорезмской диалектной зоны входят Хорезмская область, Южный Каракалпакстан (Турткульский, Элликалинский, Берунийский, Амударьинский) районы этого массива и Ташховузская область Республики Туркменистан (где проживают узбеки). Диалекты городов Ургенч и Хива, служащие фокусом (базовым диалектом) диалектной зоны, окружены огузскими и кыпчакскими диалектами, которые также оказывают влияние на казахский, каракалпакский и туркменский языки. В диалектной зоне Хорезма наряду с казахским, каракалпакским и туркменским языками распространены огузский и кыпчакский диалекты узбекского языка. В основе нашей работы в данной статье лежит классификация узбекского языкового массива на диалектные зоны, предложенная А. Джураевым [Джураев, 1991].

Узбекский и туркменский языки, исторически относящиеся к огузской группе тюркских языков Хорезмской диалектной зоны, имеют общие и различные аспекты (изоглоссы). Подобные сходства и различия очевидны в фонетике. В статье говорится о некоторых фонетических особенностях, общих для узбекского и туркменского языков Хорезмской диалектной зоны.

Ключевые слова: узбекский язык, туркменский язык, Хорезмская диалектная зона, огузский диалект, кыпчакский диалект, фонетика, гласные, согласные.

Annotation. The Uzbek language massif, which is a part of the Turkic linguistic range, was initially conceptually and scientifically classified into dialectal zones by A. Jorayev [Джураев, 1991]. Within the existing language array, a dialectal zone is a linguistic area that unites multiple dialects and languages under the influence of a base dialect. The Uzbek language massif is divided into seven a-zonal regions and eleven dialectal zones by A. Jorayev [Джураев, 1991]. The Khorezm dialectal zone includes the Khorezm region, the Southern Karakalpakstan (Tortkol, Ellikkala, Beruniy, Amudarya) districts of this massif, and the Tashkhovuz region of the Republic of Turkmenistan (where Uzbeks live). The dialects of the cities of Urganch and Khiva, which serve as the focal point (base dialect) of the dialectal zone, are surrounded by Oghuz and Kipchak dialects, which also influence Kazakh, Karakalpak, and Turkmen languages. Oghuz and Kipchak dialects of Uzbek language are spoken in the dialectal zone of Khorezm, along with Kazakh, Karakalpak, and Turkmen languages. We base our work in this article on A. Jorayev's classification of the Uzbek language massif into dialectal zones [Джураев, 1991].

The Uzbek and Turkmen languages, historically belonging to the Oghuz group of Turkic languages in the Khorezm dialectal zone, have common and different aspects (isoglosses). Such commonalities and differences are evident in phonetics. The article talks about some phonetic features common to the Uzbek and Turkmen languages of the Khorezm dialectal zone.

Key words: Uzbek language, Turkmen language, Khorezm dialectal zone, Oghuz dialect, Kipchak dialect, phonetics, vowels, consonants.

Ma'lumki, o'zbek va turkman tillari qarindosh til o'laroq, turkiy tillar oilasiga mansubdir. O'zbek xalqi va tilining yuzaga kelishida turkiy qabilalarning uch yirik: qarluq, qipchoq, o'g'uz komponentlari ishtirok etsa [Ashirboyev 2021, 18-20], turkman xalqi va tili esa, o'g'uz va qipchoq komponentlarining o'zaro aralashuvidan yuzaga kelganligi adabiyotlardan ma'lum [Weýisow 2008, 17-29]. Shunga ko'ra, o'zbek tili turkiy tillar ichida murakkab dialektal tarkibli til sifatida dastlab 3 lahjaga (qarluq, qipchoq, o'g'uz), lahjalar esa dialektlarga, dialektlar o'z navbatida, shevalarga bo'linadi. Turkman tili o'zbek tilidan farqli ravishda dastlab ikki dialektga (o'g'uz, qipchoq), dialektlar esa, shevalarga bo'linadi.

O'zbek tilining qarluq lahjasi uyg'ur tili bilan, qipchoq lahjasi esa, qipchoq tillari bilan umumiylik kasb etgani singari o'g'uz lahjasida ham o'g'uz turkum tillari bilan mushtarak jihatlar talaygina. O'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi olimlar tomonidan o'zbek shevalarini tasnif qilishda turli chalkashliklarga yo'l qo'yishga sabab bo'lgan. Xususan, Y.D.Polivanov o'zbek tilining qipchoq lahjasiga nisbatan qozoqlashgan, shahar va shahar tipidagi shevalarga nisbatan eronlashgan, umlautli shevalarga nisbatan uyg'urlashgan, shuningdek, o'g'uz lahjasiga nisbatan turkmanlashgan shevalar sifatida keltirgan noto'g'ri talqinlari o'z davrida olimlar tomonidan keskin e'tiroz va tanqidlarga sabab bo'lgan [Поливанов 1933].

Yuqorida aytilganidek, o'zbek tilining tarkib topishi qarluq, qipchoq va o'g'uz qabilalarining birlashuvi yoki aralashuvidan yuzaga kelgan. Shunga ko'ra, mazkur lahja vakillari nutqida turkiy tillarning tegishli turkumlariga xos bo'lgan til xususiyatlarning mavjud bo'lishi tabiiydir va buni qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning ta'siriga bog'lab qo'yish noto'g'ridir.

O'zbek dialektologiyasi so'nggi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Mavjud shevalar lingvistik geografik, shuningdek, areal lingvistik jihatdan keng o'rganila boshlandi. Bu borada, A.Shermatov, A.Jo'rayevlarning xizmatlari katta. O'zbek tili massivi ilk bor ilmiy-nazariy jihatdan A.Jo'rayev tomonidan dialektal zonalaraga ajratildi [Джыпаев 1991]. Dialektal zona mavjud til massivida fokus nuqta (tayanch dialekt) ta'siri doirasida bo'lgan bir nechta lahja va tillarni birlashtiruvchi lingvistik arealdir. A.Jo'rayev o'zbek tili massivini 11 ta dialektal zonaga hamda 7 azonal hududlarga ajratadi [Джыпаев 1991]. Mazkur massivning Xorazm viloyati, Janubiy Qoraqalpog'iston (To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy, Amudaryo) tumanlari hamda Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati(dagi o'zbeklar yashaydigan) hududlarini Xorazm dialektal zonasi tarkibiga kiritadi. Xorazm dialektal zonasida o'zbek tilining o'g'uz va qipchoq shevalari, shuningdek, qozoq, qoraqalpoq va turkman tillarida muloqot qiluvchi aholi yashaydi hamda dialektal zonaning fokus nuqtasi (tayanch dialekti) sifatida Urganch va Xiva shaharlari shevalari atrof o'g'uz, qipchoq shevalariga, shuningdek, qozoq, qoraqalpoq va turkman tillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Biz

maqolada A.Jo'rayevning [Джурев 1991] o'zbek tili massivini dialektal zonalariga ajratilishi asosida ish ko'ramiz.

Xorazm dialektal zonasining tegishli areallarida turkmanlar istiqomat qiladi. Masalan, To'rtko'l tumani Oqqamish, Oqboshli, Kaltaminor, Otayurt, Paxtachi, Paxtaobod, Atauba, Bezirgan, Tuproqqal'a tumani Sarimoy, Nukus maskani, Beruniy tumani Ozod, Mahtumquli, Amudaryo tumani Amir Temur qishloqlarida yashovchi turkmanlar o'zaro muloqotda turkman tilidan foydalanadilar. Ishda Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman tillari uchun umumiy bo'lgan ba'zi fonetik xususiyatlar haqida so'z boradi.

Natijalar va muhokama. O'zbek va turkman shevalari fonetikasining o'xshash jihatlari F.Abdullayev va M.Saparov ishlarida to'xtalib o'tilgan. F.Abdullayev Xorazm shevalari fonetikasini turkiy tillar bilan birgalikda turkman tiliga ham qiyoslab bayon qiladi [Абдуллаев 1961]. M.Saparov Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman tillarining o'zaro munosabatlari haqida to'xtalarkan, avvalo ikki til leksikasining o'xshash va farqli xususiyatlarini qayd etsa-da, ishda o'zbek va turkman tillari fonetikasi, grammatikasining o'xshash va no'xshashliklariga ham qisqacha to'xtalib o'tadi [Сапаров 1988].

Cho'ziq unlilarning mavjudligi. Turkiy tillar vokalizmida unli tovushlar davomiyligi, miqdor belgisiga ko'ra 3 ga bo'linishi adabiyotlarda qayd etilgan [Щербак 1970, 47]. Cho'ziq unlilar talaffuzda odatdagiga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Turkiy tillarda cho'ziq unlilar borasida bir talay ishlar amalga oshirilgan bo'lib, qadimgi turkiy til yodgorliklarida unlilar cho'ziqligi haqida V.V.Radlov [Radloff 1901], K.Foy [Foy 1900], zamonaviy turkiy tillardagi cho'ziq unlilar haqida O.N.Byotlingk [Бётлингк 1848-1851], V.Grumbach [Grønbech 1902], X.Pedersen [Pedersen 1903, 535-561], Z.Gombocz [Gombocz 1912], N.N.Poppe [Поппе 1924, 289-314], Y.Nemet [Németh 1915, 150-164], G.J.Ramstedt [Ramstedt, 1922. 34], Y.D.Polivanov [Поливанов 1924; 1927, 141-153] A.M.Ryasyanin [Räsänen 1937, 246-255], L.Ligeti [Ligeti 1964, 1-48], K.Menges [Menges 1938, 7-34], E.Jevat [Cevat 1946, 10-11], T.Teken [Teken 1995], A.M.Shcherbak [Щербак 1967, 34-47; 1970], A.V.Dibo [Дыбо 2015, 5-20] kabi olimlar tadqiq etganlar. Ilk bor o'zbek tili // shevalarida cho'ziq unlilarning borligi venger olimi Y.Budenz tomonidan 1865 yilda Vengriya Fanlar akademiyasining tilshunoslik jurnalida e'lon qilingan "Xiva o'zbekchasi" [Budenz 1865, 269-331] nomli maqolasida qayd qilingan [Teken 1995, 11]. Olim o'zbek tilida sof turkiy so'zlarda cho'ziq unlilarning talaffuz etilishini ta'kidlab, usmonli turkchada esa, unlilarning cho'ziqligi arab va fors so'zlaridagina uchrashini alohida aytib o'tadi.

Shundan so'ng o'zbek shevalarida unlilarning cho'ziqligi haqida ma'lumotni Y.D.Polivanov asarlarida uchratishimiz mumkin. Y.D.Polivanov turkiy tillardagi cho'ziqlikning V.V.Radlov tomonidan V + K + V (vokal + konsonant + vokal) kabi birikmalarda unlining undosh bilan yoki unlining unli bilan birikishi natijasida hosil bo'lganligi haqidagi fikriga o'rinli e'tiroz bildirib, V.V.Radlovning faqat yoqut tilidagi cho'ziq unlilar mavjudligidan xabardorligi

va shu kabi cho‘ziq unlilar yaxshi saqlangan turkman tili haqida bilmasligini tanqid qiladi [Поливанов 1924]. Olim turkiy tillardan yoqut tili, tatar shevalarida, turkman tili, qorachoy shevalarida, Shimoliy o‘zbek shevalarida cho‘ziq unlilar mavjudligini qayd etadi [Поливанов 1927, 141-153]. Y.D.Polivanov o‘zbek shevalarini tasniflarkan, turkmanlashgan o‘zbek shevalari sifatida keltirilgan 3-guruhning o‘ziga xos xususiyati sifatida cho‘ziq / uzun va qisqa unlilar mavjudligini qayd etadi va Xiva shevasidan: *at (ot)*, *a:d (ism)*; *ot (o‘t)*, *o:t (olov)*; *jaz (yoz(moq))*, *ja:z (yoz (fasl))*; Iqon shevasidan: *atiñ baši (ot)*, *a:diñ baši (ism)*, *a:diñ kümdü*; *ot (o‘t)*, *o:t / o:d (olov)*, *o:dun (o‘tin)*; *jaz (yozmoq)*, *ja:z (yoz (fasl))*; *a:dam-nar*; *bar (bormoq)*, *ba:r (mavjud)*, *ba:-na jo:q-na*; *a:š* kabi misollarni keltiradi [Поливанов 1929, 514.]. Mazkur to‘plamdagi ikkinchi maqolasini Iqon qishlog‘i shevasining fonetik tizimiga bag‘ishlab, sheva unlilarini dastlab ikkiga qisqa va cho‘ziq unlilarga ajratib, 9ta qisqa va 9ta cho‘ziq / uzun jami bo‘lib, 18ta unli borligini qayd etadi va turkman tilida esa 16ta (8ta qisqa va 8ta uzun) unli borligini qistirib o‘tadi [Поливанов 1929, 528.].

Shundan so‘ng, o‘zbek shevalarida cho‘ziq unlilar yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, Xorazm shevalarida, Qorabuloq, Qarnoq shevalarida cho‘ziq unlilar haqida F.Abdullayev [Абдуллаев 1961; 1965, 17-22; 1976; 1959, 27-33], o‘zbek tili tarixi va shevalaridagi cho‘ziq unlilar haqida Q.Mahmudov [Махмудов 1983, 11-14; 1991, 29-34.], Iqon shevasidagi cho‘ziq unlilar haqida Z.Xidraliyeva [Xidraliyeva 2023] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. F.Abdullayev Xorazm o‘g‘uz shevalarining diqqatga sazovor tomoni unlilardagi birlamchi yoki qadimiy cho‘ziqlikning saqlanib qolganligini ta’kidlaydi [Абдуллаев 1961, 56.]. Olim Xorazm o‘g‘uz shevalarida cho‘ziqlik fonologik xususiyatga egaligini va bu xususiyat qipchoq shevalarida yo‘qligini aytib, o‘g‘uz shevalarida unli fonemalarning soni 17ta ekanligini, **ı** (orqa qator, tor) unlisining cho‘ziq jufti yo‘q, **ä** va **ü** unlilarining cho‘ziq juftlari fonologik qiymatga ega emasligini, ya’ni ma’no farqlash xususiyati yo‘qligini qayd etadi. Ishda **i:**, **ï:**, **u:**, **ü:**, **e:**, **ö:**, **o:**, **a:** cho‘ziq unlilariga to‘xtalib, namunalar keltiradi va Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi cho‘ziq unlilar haqida quyidagicha xulosa beradi:

1. qisqa va cho‘ziq unlilarni farqlash qiyin emas, buni turkman tili materiallari ham tasdiqlaydi;
2. o‘g‘uz shevalaridagi unlilarning cho‘ziqligi fonologik ahamiyatga ega, lekin barchasida emas (**ı**, **ä**, **ü**).
3. unlilarning cho‘ziqlik darajasi yopiq bo‘g‘inda yarim cho‘ziq holatda, ochiq bo‘g‘inda esa, kengroq talaffuz qilinishini qayd etadi. Masalan, *da:γ*, *ba:γ* so‘zlariga nisbatan *ba:γi*, *ba:γa*, *da:γinda* so‘zlarida ochiq bo‘g‘inda kengroq talaffuz qilinadi.

Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasiga bag‘ishlangan dastlabki “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida ham o‘zbek shevalaridagi cho‘ziq unlilar haqida alohida fasl keltirilgan bo‘lib, darslikka ko‘ra, o‘zbek tilining ikki hududiy jihatdan o‘zaro qarama-qarshi – Shimoliy o‘zbek gruppasiga mansub bo‘lgan Qorabuloq, Iqon shevalarida hamda Janubiy Xorazm shevalarida cho‘ziq

unlilarning mustaqil fonema sifatida saqlanganligi haqida aytib o'tilgan va Shimoliy o'zbek gruppasidagi (Qorabuloq, Iqon) cho'ziq unlilar haqida ma'lumot beriladi [Решетов, Шоабдурахмонов 1962, 91-93].

Aytish joizki, o'zbek tilining o'g'uz lahjasida saqlangan cho'ziq unlilar o'zining fonologik ahamiyati jihatidan qisqa unlilardan farqlanadi. Masalan, F.Abdullayev Xorazm o'g'uz shevalarida 17ta unlini fonema sifatida keltirsa, Qarnoq shevasida 18ta unli fonema [Абдуллаев 1965, 18], Y.D.Polivanov Iqon shevasida 18ta unli fonemani sanasa, ayni shu shevada Z.Xidraliyeva esa, 9ta tovush va uning cho'ziq variantlarini (alohida fonema emas) keltiradi. Shuningdek, olim Y.D.Polivanov qayd etgan ϵ va shu unlining uzun-qisqalik jihatidan ma'no farqlovchi juft-fonemasi ϵ : unlisi hozirgi Iqon shevasida to'laligicha $\ddot{u}$ unlisiga o'tganligini qayd etadi [Xidarliyeva 2023, 21] va uzun-qisqalik jihatidan fonologik qimmatga ega bo'lgan mazkur unlining qisqa talaffuzini ($\ddot{u}$) *tovush sifatida cho'ziq $\ddot{u}$: ni esa, alohida fonema emas, balki tovushning varianti sifatida keltiradi. Umuman, Z.Xidraliyeva o'zbek dialektologiyasidagi tovush-fonema munosabati hali to'laligicha yechim topmagan masalalardan biri ekanligini va dialektologik ishlarda fonema-tovush terminlari aralash qo'llanishini alohida ta'kidlaydi hamda ishda qisqa unlilarni tovush, cho'ziq unlilarni esa, tovushning varianti sifatida keltiradi* [Xidarliyeva 2023, 14-15].

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda tovushning bir nechta tomoni borligi qayd etiladi: akustik, artikulyatsion, lingvistik va tilshunoslik nuqtai nazaridan lingvistik (ma'no farqlash) aspekti muhim ekanligi ta'kidlanadi. Lingvistik aspekt fonologik aspekt deb ham nomlanadi va tilshunoslikning fonologiya bo'limida o'rganiladi. Fonologiyaning o'rganish ob'ekti fonema bo'lib, fonema o'zaro umumiy-xususiy dialektikasi jihatidan tovushga zid qo'yiladi va tovush tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladi. Fonema – so'zlar yoki morfemalarning tovush qobig'ini farqlash orqali ularning ma'nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlik [Жамолхонов 2009, 104]. Aytish joizki, keyingi davr o'zbek dialektologiyasiga doir adabiyot, darslik, qo'llanmalarda [Ashirboyev 2021] *tovush-fonema munosabatida fonema (lisoniy-vazifaviy) emas, balki tovush ("eshitilib turuvchi") nuqtai nazaridan qarash kuchlidir. Turkiy tillar ichida bir-biridan keskin farq qiluvchi dialektlarga ega o'zbek shevalari fonetik jihatdan to'laqonli o'rganilib bo'lingani yo'q va shunga ko'ra, hali tovush tomoni mukammal o'rganilmagan shevalar fonetikasiga lisoniy jihatdan yondashish maqsadga muvofiq emas. Hozirgacha qilingan ishlar yuzasidan tovush-fonema munosabatida tovush jihatidan yondashgan ma'qul, lekin o'zbek shevalari fonetikasining o'rganilishi natijasida dialektologiyada tovush-fonema munosabatida fonema (fonologik) nuqtai nazaridan yondashish kerakki, bu esa, adabiy til va unga zid o'laroq, o'zbek shevalarining lisoniy-fonologik xususiyatlarini to'laqonli aks ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'ylashimizcha, o'zbek shevalari fonetikasining lisoniy-fonologik jihatdan o'rganilishi hali o'zbek dialektologiyasida, til tarixida, o'zbek tili fonetikasida yechimini topmagan savollarga javob topishi mumkin.*

Lekin turkiy tillar uchun, shuningdek, o'zbek shevalari uchun xarakterli bo'lgan cho'ziq unlilarga alohida fonema yoki fonemaning varianti sifatida qarash biroz mulohazatalab mavzulardandir.

Ma'lumki, tovush fonetikada, fonema fonologiyada o'rganiladi. Tilshunoslikda uzoq yillar davomida tovush-fonema munosabati aralash holda qo'llanilgan. Zamonaviy tilshunoslikda fonema nazariyasi yuzaga kelishi Boduen de Kurtene va uning shogirdlari nomi bilan bog'lanadi. Fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqishida va fonemani tovushdan (fonema variantidan) ajratish mezonlarini belgilashda N.S.Trubetskoyning xizmati katta. Fonema so'zlar yoki morfemalarning tovush qobig'ini farqlash orqali ularning ma'nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir. Masalan, bur va bo'r (segment birliklar – b, u, r va b, o', r) tuz va tur (segment birliklar – t, u, z va t, u, r), “-man” va “-san” (segment birliklar – m, a, n va s, a, n) kabi. Bunday segment birliklarning fonematik xususiyatlari so'z tarkibidagi tovushlar miqdorini orttirish yoki, aksincha, qisqartirish yo'li bilan ham aniqlanishi mumkin. Masalan, or so'zi tarkibida ikkita segment birlik (o va r fonemalari bor), zor, ozor, bozor so'zlari tarkibida esa ularning soni ko'proq: 3 ta (“zor”da), 4 ta (“ozor”da), 5 ta (“bozor”da) kabi [Жамолхонов 2009, 91]. Fonologik birliklarning – fonemaning tasnif va tahlilida umumiylik-xususiylik dialektikasi fonologik sathda aks etadi. Shu kabi ma'lum tovush fonemalik maqomiga ega bo'lishi uchun o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Fonema umumiy-xususiylik jihatidan diffensial va integral belgilari mavjud bo'lishi kerak. Demak, o'zbek shevalaridagi unlilar tasnifi jihatidan cho'ziq va qisqa unlilarning umumiy-integral belgilari tilning vertikal holatiga, tilning gorizontalar harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra tasniflarida yuzaga chiqadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, yuqori tor, lablanmagan, old qator i qisqa unlisi i: cho'ziq unlisi bilan ushbu jihatlari bilan (yuqori tor, lablanmagan, old qator) umumiylik kasb etadi. Ammo i qisqa va i: cho'ziq unlilari miqdoriy belgilari (akustik) va ma'no farqlash xususiyatiga ko'ra o'zaro zidlanadi va fonologik oppozitsiyaga ega bo'ladi. Bu kabi zidlanish barcha qisqa va cho'ziq unlilarda kuzatiladi. Masalan, in (inmoq (fe'l), i:n (uya), ič (ichmoq fe'l), i:č (ichki), qiz (qizimoq), qiz:z (qiz bola), qij, qiz:j²⁸, un (unmoq), u:n (ovoz), tush (tushmoq), tush:š (tush), buz (fe'l), bu:z (muz), uch (uchmoq), u:č (yuqori), er (yaxshi, jasur), e:r (tong, sahar), es (burmoq), es:š (do'st), ot (o'tmoq), ot:t (o't), gor (qaramoq), gor:r (qabr), ot (o't-o'lan), ot:t (olov), qoj (qo'ymoq), qoj:j (qo'y hayvon), kar (kermoq), kar:r (hush), as (oshmoq), as:š (ovqat), das (toshmoq), das:š (tosh). Mazkur misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilining o'g'uz lahjasida cho'ziq unlilar qisqa unlilar bilan zidlanganda ma'no farqlash xususiyatiga ega. Shu jihatdan ayni xususiyatni saqlagan o'zbek shevalari fonetikasi haqida gap ketganda unlilar cho'ziqligi fonologik qimmatga egaligi hisobga olinib, alohida fonema sifatida keltirish lozim. Zero, fonema fonema bo'la olishi uchun o'zaro umumiy-xususiylar belgilariga ega bo'lishi kerak va unlilar cho'ziqligi o'zbek

tilining o'g'uz lahjasida shunday xarakterdadir. Lekin unlilar cho'ziqligi o'zbek shevalari yuzasidan umumxarakterga ega emas, ya'ni o'zbek tilining qarluq va qipchoq lahjasiga [Данияров 1975, 91] xos emas. O'zbek shevalari haqida gap borar ekan, faqat o'g'uz lahjasiga xos (qarluq va qipchoq lahjalariga emas) cho'ziq unlilar fonema sifatida keltirilmasdan, fonema varianti sifatida keltirish ma'qul. Ammo aynan o'g'uz lahjasi yoki lahja tarkibidagi ma'lum shevaning fonetik xususiyatlarida cho'ziq unlilarga fonema o'laroq talqin etish kerak.

Ma'lumki, unlilar cho'ziqligi o'z ichida bir nechta turlarga bo'linadi: birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi (emfatik) [Ashirboyev 2021, 45]. Turkiy tillardagi unlilarning birlamchi cho'ziqligi mavhum masalalardan biridir. Birlamchi cho'ziqlik turkiy tillar tarixiga xosligi ma'lum bo'lsa-da, turkiy tillarning tarixiy fonetikasi va keyingi taraqqiyoti, hozirgi turkiy tillardagi cho'ziqlik to'la o'rganilgan deb bo'lmaydi. Shu jihatdanmi, yuqorida sanalgan adabiyotlarda turkiy tillardagi birlamchi cho'ziqlik haqida ma'lumotlar berilsa-da, birlamchi cho'ziqlik hodisasiga ilmiy jihatdan to'laqonli ta'rif berilganicha yo'q.

Qadimgi turkiy tilga xos birlamchi cho'ziqlik adabiyotlarda asl cho'ziqlik, etimologik cho'ziqlik, umumturkiy cho'ziqlik, qadimiy yoki qadimgi turk cho'ziqligi [Амансарыев 1970, 68] kabi terminlari bilan ataladi. Birlamchi cho'ziqlik asosan, so'zning dastlabki bo'g'inida ot va otlashgan so'zlar tarkibida keladi. Turkman tilli adabiyotlarda birlamchi cho'ziq unlilarning ma'no farqlash xususiyatiga ko'ra, o'z ichida ikkiga ajratiladi. Ma'no farqlaydigan cho'ziq unlilar va ma'no farqlamaydigan cho'ziq unlilar [Аразкулыев 1961, 24]. Agar unlining cho'ziqligi ma'no farqlashga xizmat qilsa, bunday cho'ziqlik fonematik yoki differensial cho'ziqlik deyiladi. Agar unlining cho'ziqligi ma'no farqlashga xizmat qilmasa, bunday cho'ziqlik nofonematik yoki nodifferensial cho'ziqlik deyiladi [Худайгулыев 1992, 93].

Aytilganidek, qadimgi birlamchi cho'ziqlik turkman tilida yaxshigina saqlangan. Shu jumladan, Xorazm dialektal zonasidagi turkman shevalarida ham unlilar cho'ziqligi qayd etiladi. To'rtko'l turkmanlari shevalarini o'rgangan olim S.Arazkuliyeв hudud turkman shevalarini 2 ga ajratib, uzun-qisqalik jihatidan ma'no farqlashiga ko'ra unlilar sostavini I guruhda (qoraqalpoq tili ta'sirli turkman shevalari) 18ta, II guruhda (o'zbek tili ta'sirli turkman shevalari) 15ta unli fonema borligini qayd etadi [Аразкулыев 1961, 21]. I guruh turkman shevalari unlilar sotavi markaziy turkman shevalari va turkman adabiy tilidagi unlilariga yaqin sifatida talqin etilgan. Aytish joizki, turkman adabiy tilida unlilar sostavi 16ta sifatida keltirilsa-da, ammo ilmiy ish va tadqiqotlarda bu masala tug'al yechimini topmaganligi kuzatish mumkin. E'tiborli jihati, unli fonemalar sostavinining munozaralarga sabab bo'lishi unlilar cho'ziq-qisqaligi bilan bog'liqdir.

Turkman tilidagi cho'ziq va qisqa unli fonemalarning miqdorini aniqlash bahsli mavzulardan biri bo'lib, turli olimlar turlicha talqin etadilar. Unli tovushlar fonema sostavi yuzasidan bildirilgan fikrlar umulashtirilsa, asosan, 3 xil talqin mavjud ekanligi kuzatiladi [Qarang: Худайгулыев 1992, 30]. Bular turkman

adabiy tilida unli fonemalarni 18, 17 va 16ta hisoblovchilardir. 18ta unli fonema bor deguvchilar (N.A.Baskakov [Баскаков 1949, 143], A.Annanurov [Аннануров 1971, 20; 1972, 7], S.Kurenov [Куренов 1974, 30-60]) 9ta qisqa va 9ta uzun fonema borligini tasdiq etsalar, 17ta fonema tarafdorlari esa (masalan, A.Annanurov [Аннануров 1970, 62.]) 18 fonemadan biri bo'lgan *ä* unlisini alohida fonema hisoblamaydi. A.P.Potseluevskiy [Потцелуевский 1936], N.K.Dmitriyev [Дмитриев 1955, 182-185], T.Tojımurodov, M.Xudoyquliyev [Тэчмырадов, Худайгулыев 1970, 16], B.Xojayev [Худайкулиев, Ходжаев 1967, 83], M.N.Xidirov K.Begenjov [Хыдыров, Бегенжов 1977, 8], J.Amansariyev, G.Qulmanov [Амансарыёв, Гулманов 1981, 42], X.Boqiyevlar [Багыев 1985, 11] esa unli tovushlar fonemalar sostavini 16ta hisoblab, *e* va *ä* fonemalarini cho'ziq-qisqaligini alohida fonema emas, balki fonema varianti sifatida keltirganlar.

Ko'rinib turibdiki, cho'ziq-qisqalik jihatidan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan 16ta unli fonemaning borligi tan olinsa-da, ammo hozirgacha ilmiy ishlarda, darslik, kitoblarda, asosan, 18 yoki 16ta unli fonema mavjud tarzidagi noaniq talqin davom etib kelmoqda. Sabab shuki, *e* va *ä* fonemasining cho'ziq va qisqa variantlarga ajratilish va ajratilmaslik muammosidir. *e* fonemasi, asosan, qisqa talaffuz etiladi va ba'zi so'zlarda ikkilamchi cho'ziqlik holatida cho'ziq talaffuz qilinib, adabiy tilda so'zning ma'nosini farqlamaydi va bu cho'ziqlik adabiy me'yor sifatida qabul qilinmagan. Masalan: *geler* > *ge:r*, *Sähet* > *Sähe:dow*, *Kömek* > *Köme:kow*.

Shevalarda mustasno sifatida *geler* so'zi (fe'l)ning I undoshi ba'zi dialektlarda tushirilib, *ge:r* shaklida aytilishi hamda ma'no jihatidan *ger* (kirmoq) so'ziga omonim bo'lishi mumkin [Худайгулыев 1992, 30]. *ä* fonemasi esa cho'ziq talaffuz qilinadi, ba'zi o'rinlarda, asosan, o'zlashgan va qo'shma so'zlarda qisqa talaffuz shakli mavjud. Masalan: *ähli*, *säher*, *şäher*, *äkel*, *akit*, *äber*.

Fonologik jihatdan, ma'no farqlash vazifasini bajaruvchi lisoniy sathga nisbatan alohida fonema maqomini berish nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, biz ham turkman adabiy tilida aksar olimlar tomonidan bildirilgan 16ta (8ta qisqa: *a*, *o*, *ö*, *u*, *ü*, *y*, *i*, *e* va 8ta cho'ziq: *a:*, *o:*, *ö:*, *u:*, *ü:*, *y:*, *i:*, *ä:*) fonemalarni qat'iylashtirish tarafdorimiz. *e* fonemasining cho'ziq varianti, asosan, og'zaki nutq sharoitidan kelib chiqqan holda ikkilamchi cho'ziqlik asosidagi undoshlarning tushirilishi natijasida ro'y beradi. *ä:* fonemasining qisqa varianti esa, ko'p hollarda, so'zlarning qisqartirilib talaffuz qilinishi va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardagina uchraydi. Shu holatlardan kelib chiqib, *e* unlisining cho'ziq va *ä:* fonemasining qisqa talaffuz qilinishini fonemalarning variantlari sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Aytish joizki, o'zbek adabiy tilida 6ta unlining mavjudligi qat'iy ravishda belgilab qo'yilgan bo'lib, darslik, qo'llanma kitoblarda shu aniq talqin keltiriladi. Lekin tadqiqotchilar tomonidan unlilarning sonini belgilash yuzasidan

munozaralar turkman tilidagi kabi hanuz davom etmoqda. Xususan, B.To'uchiboyev [Туйчибоев 1996, 25], X.Doniyorov [Данияров 1975, 103], M.Mirtojiyev [Миртожиев 2013] va boshqalarning tadqiqotlari fikrimiz isbotidir.

Demak, Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman tillarida unlililarning cho'ziqligi xarakterli bo'lib, ularning soni 16-17tagacha uchrashi kuzatiladi. Ammo F.Abdullayev ta'kidlaganidek, Xorazm o'g'uz shevalarida unlilar miqdor belgisiga ko'ra, 17ta bo'lsa-da, ammo fonologik jihatdan **u**, **ä**, **ü**: unlilarining cho'ziqligi ma'no farqlamaydi va fonologik jihatdan unlilarning soni 14taga tushadi. O'zbek shevalaridan farqli o'laroq, turkman shevalarida cho'ziqlik unlilar miqdor belgisiga ko'ra, 15-18tagacha uchraydi.

Aytish joizki, dialektal zonadagi o'zbek va turkman tillarida miqdor belgisiga ko'ra unlilar cho'ziq-qisqalik jihatidan farqlansa-da, ammo ikki til-shevada cho'ziq-qisqa unlilarning qo'llanilishiga doir farqli jihatlar talaygina.

Turkman shevalarida unlilarning miqdor belgisiga ko'ra, to'rt turi borligi aytib o'tildi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, turkman shevalari singari dialektal zonaning o'zbek shevalarida ham yarim cho'ziq unlilar keng uchramasa-da mavjud. Masalan, *erík*, *elat*, *ešan* kabi so'zlardagi **e** unlisi *e:r*, *e:š*, *ge:žä* so'zlardagi **e** ga nisbatan qisqa, lekin *el*, *jer*, *gečči* so'zlardagi **e** ga nisbatan cho'ziq talaffuz qilinadi.

Undosh tovushlarning jaranglilashuvi (so'z boshida $t > d$, $k > g$). Xorazm dialektal zonasida o'zbek va turkman shevalari fonetikasining yana bir umumiy jihati so'z boshida undosh tovushlarning jaranglilashuvidir. Urganch-Xiva: *gäl* (*kel*), *git* (*ket*), *gö:z* (*ko'z*), *gijim* (*kiyim*), *gežä* (*kecha*), *dur* (*tur*), *dal* (*tol*), *damar* (*tomir*), *dar* (*tor*), *dämir* (*temir*), turkm. *gel*, *git*, *gö:z*, *gijim*, *gežä*, *dur*, *dal*, *damar*, *dar*, *dämir* kabi. Umuman olganda, so'z boshida jaranglilarning qo'llanilishi o'g'uz turkum tillari uchun xarakterli xususiyatdir. Ammo so'z boshida jarangli tovushlarning qo'llanilishi turkiy tillar tarixi va hozirgi turkiy tillarning barchasida uchramaydi. Chunonchi, xakas va chuvash tillarida anlaut holatida jarangli undoshlar qo'llanilmaydi [Щепбаков 1970, 89]. Umuman, turkiy tillardagi so'z boshidagi jaranglilashish mavhum tushunchalardan biri bo'lib, hali tugal yechimini topmagan mavzulardandir. Turkologik tadqiqotlarda so'zboshida jarangli undoshlarning qo'llanilishi keyingi hodisa ekanligi, qadimgi turkiy tilda so'z boshida asosan, jarangsiz undoshlarning kelishi ta'kidlanadi. Urhun bitiklarida *ben*, *ber*, *bi:r* kabi ba'zi so'zlarda so'z boshida jarangli tovushlar uchrashi kuzatiladi [Weyisow 2008, 60]. Qadimgi turkiy tilda **b** undoshining qo'llanilishi nisbatan keng uchraydi. So'zning oxiri **n** va **ŋ** tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli **b** undoshi saqlanadi: *bän* – *men*, *biŋ* – *ming*, *bin* – *min* kabi [Турсунов, Уринбоев, Алиев 1995, 59]. Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlar ba'zi so'zlarni jaranglilatib talaffuz qilishini, turklar *tevej* desalar, o'g'uzlar esa, *devej* (*tuya*), turklar *öt* desalar, o'g'uzlar *öd* deb aytishini

qayd etadi. Shuningdek, olim turkiy qabilalarning ko'pgina so'zlaridagi (asosan, so'z o'rtasida – A.E.) **ﺩ** (**d**) harfi o'g'uzlarda **ﺕ** (**t**) bo'lishini ta'kidlab, quyidagi misollarni keltirib o'tadi. Turkklar hanjarni *bögdü* desalar, o'g'uzlar *böktü* deyдилar, jiydani turklar *jigdü* desalar, o'g'uzlar *jiktü* deyдилar [Кошғарий 1960, 67]. “Devon”da **t** ning **d** ga o'tishi haqida gapirilsa-da, ammo **k** ning **g** ga o'tishi haqida to'xtalinmaydi [Tosun, Koç 2016, 411-432]. So'zboshida **k** undoshining **g** ga o'tishi eski turkiy til davri manbalaridan biri “Hibat ul haqoyiq” asarida faqatgina *gejim* so'zida hamda ba'zi forscha o'zlashmalarda, masalan, *ganj*, *gavda*, *gavhar*, *gul*, *gulob*, *gur*, *guruh*, *guvarish*, *guzaf* kabi so'zlarda uchrashi qayd etiladi [Tosun, Koç 2016, 411-432]. Lekin turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrda so'zboshidagi jarangsiz undoshlarning jaranglilariga o'tishi, shuningdek, o'g'uz turkum tillarida **t > d**, **k > g** jaranglilashuvi qanday sabablar tufayli yuzaga kelgani hali to'liq yechimini topmagan mavzulardan biri hisoblanadi.

Jaranglilashish o'g'uz turkum tillariga xos bo'lsa-da, lekin ushbu tillar uchun ham umumqonuniyat emas. Masalan, turkman tilining kirach, surxi, chandir kabi shevalarida so'zboshida **g** tovushi o'rniga **k** qo'llaniladi: *körmäk*, *keräk*, *köz*, *keže-kündüz* kabi [Сапаров 1988, 36]. So'z boshida **d** jarangsiz **t** holatda talaffuz qilinishi kirach, chandir, ersari, sariq, salir kabi bir qator shevalarda uchraydi: *tö:rt* (ersari, sar., sal., alili, taka, mari, qtsh., ota), *tökmek* (ersari, sal., nox., anav, xas.), *ta:š* (kir., nox.), *tigiz* (ersari, chov., taka, mari), *tepe* (kir., anav, mukri), *tijä* (mukri, kir.), *tögmä* (chegas), *tövmä* (mukri) [Амансарыев 1970, 202]. Bu kabi holatni o'zbek tilining o'g'uz lahjasida ham kuzatish mumkin. Shimoliy o'zbek o'g'uz shevalarida so'z boshida **t > d**, **k > g** sporadik ravishda ba'zi o'rinlardagina uchraydi (*dorba*, *doppï*, *damba*, (*tamba*), *gündä*) va doimiy ravishda so'z boshida jarangsizlashish xosdir [Абдуллаев 1978, 54].

Shuningdek, dialektal zonaning o'zbek va turkman tillarida jaranglilashishning **č > ž** ko'rinishi mavjud, Urganch-Xiva: *a:žï*, *süžï*, *yu:žaq*, *o:žaq*, turkman. *a:žï*, *sü:žï*, *yu:žaq*, *o:žaq*.

Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek (o'g'uz) va turkman tillarining kelib chiqishi turkiy tillarning o'g'uz komponentiga borib taqaladi. Shunga ko'ra, dialektal zonadagi o'zbek va turkman tillarida umumiy jihatlar talaygina. Morfologik, leksik sathda bo'lgani kabi fonetik sathda ham o'zbek va turkman tillarining mushtarak tomonlarini quyidagicha keltirish mumkin:

– qadimiy birlamchi cho'ziqlikning dialektal zonadagi o'zbek va turkman tillarida unlilarning cho'ziqligi xarakterli bo'lib, ularning soni 16-17tagacha uchrashi kuzatiladi. Ammo F.Abdullayev ta'kidlaganidek, Xorazm o'g'uz shevalarida unlilar miqdor belgisiga ko'ra, 17ta bo'lsa-da, ammo fonologik jihatdan **ı:**, **ä:**, **ü:** unlilarining cho'ziqligi ma'no farqlamaydi va fonologik jihatdan unlilarning soni 14taga tushadi. O'zbek shevalaridan farqli o'laroq,

turkman shevalarida cho‘ziqlik unlilar miqdor belgisiga ko‘ra, 15-18tagacha uchraydi;

– anlautda undoshlarning jaranglilashuvi (**t > d, k > g**): Urganch-Xiva: *gäl* (*kel*), *git* (*ket*), *gö:z* (*ko‘z*), *gijim* (*kiyim*), *gežä* (*kecha*), *dur* (*tur*), *dal* (*tol*), *damar* (*tomir*), *dar* (*tor*), *dämir* (*temir*), turkm. *gel*, *git*, *gö:z*, *gijim*, *gežä*, *dur*, *dal*, *damar*, *dar*, *dämir* kabi. Shuningdek, jaranglilashning o‘ziga xos ko‘rinishi ham dialektal zonadagi ikki til-shevada ham uchraydi, **č > ž**: Urganch-Xiva: *a:žī*, *süžī*, *yu:žaq*, *o:žaq*, turkman: *a:žī*, *sü:žī*, *yu:žaq*, *o:žaq*.

Adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров узбекского языка. Дисс... фил. н. Ташкент, 1961.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент, 1976.
4. Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т: 1959. № 3.
5. Абдуллаев Ф. Қарноқ шевасининг фонетикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1965. № 6.
6. Амансарыев А. Ж. Түркмен диалектологиясы. – Ашгабат: Түркменистан, 1970.
7. Амансарыев Ж., Гулманов Г. Лингвистик терминлеринг русча-туркменче справочниги. - Ашгабат: Магарыф, 1981.
8. Аразкулыев С. Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. – Ашгабат, 1961.
9. Аннануров А. Дил билиминиң эаслары. – Ашгабат, 1971.
10. Аннануров А. Развитие туркменского языка за советский период. – Ашхабад: Ылым, 1972.
11. Аннануров А. Чекимли фонемаларың габатлашмасы боюнча әрсары диалектиниң эсасы айратынлыклары // ТССР ЫА- ның хабарлары. – Ашгабат, 1970. № 5.
12. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. A Magiak Tudományos Akadémia Nyelvtudományi bizottsága. Negyedik kötet. –Pesten: 1865.
13. Багыев Х. Туркмен дилинде комбинатор сес уйтгетмелери. – Ашгабат : ТДУ, 1985.

14. Баскаков Н.А. Об особенностях говора северокавказских туркмен. – М. – Л., 1949.
15. Бётлингк О.Н. О языке якутов. -Санкт-Петербург, 1848-1851. 3 том.
16. Данияров Х. Опыт изучения джекающих (кыпчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком (на материалах Самаркандской и Джизакской областей). – Ташкент: Фан, 1975.
17. Дмитриев Н.К. Долгие гласные ь туркменском языке. - Ашгабат, 1955.
18. Дыбо А. В. О первичных долготах в тюркских языках // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. Т. 13, вып. 1. С. 5–20. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-pervichnyh-dolgotah-v-tyurkskih-yazykah/viewer>
19. Foy K. *Türkische Vokalstudien, besonders das Köktürkische und Osmanische betreffend*. In: MSOS WAS 3. -Berlin, 1900.
20. Gombocz Z. Die bulgarisch-türkischen Lehnwörter in der ungarischen Sprache. Helsinki: Société finno-ougrienne, 1912.
21. Grønbech V. P. Forstudier til tyrkisk lydhistorie. - København: Lehmann og Stages, 1902.
22. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент, 2009.
23. Cevat E. Türkçede uzun vokallar (ünsüller) // Türk Dili-Belleten. – Istanbul, 1946. № 3.
24. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: Фан, 1960.
25. Куренов С. Туркмен дилиниң узун ве гысга чекимлилери. – Ашгабат: Ылым, 1974.
26. Ligeti L. Les voyelles longues en moghol // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae. – Budapest, 1964. № 17.
27. Menges K. Einige Bemerkungin zur vergleichende Grammatik des Türkmenischen // Archiv Orientální. – Praga, 1938. № 11.
28. Маҳмудов Қ. Ёзма манбаларда бирламчи чўзиқ унлилар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1983. № 5.
29. Маҳмудов Қ. Чўзиқ унлилар сўнгги ходисами? // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. № 6.
30. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

31. Németh G. *Die langen Vokale im Jakutischen* // Keleti Szemle = Revue Orientale Pour les Etudes Ouralo-Altaïques: Közlemények az ural-altaji nép- és nyelvtudomány köréből. – Budapest, 1915.
32. Pedersen H. *Türkische Lautgesetze* // ZDMG. – Leipzig: 1903. № 57.
33. Поливанов Е.Д. *Узбекская диалектология и узбекский литературный язык*. – Тошкент, 1933.
34. Поливанов Е.Д. *К вопросу об общетурецком долготе гласных* // Средне-азиатского государственного университета. Ташкент, 1924.
35. Поливанов Е.Д. *К вопросу о долгих гласных в общетурецком языке* // Доклады АН ССР. 1927.
36. Поливанов Е.Д. *Образцы неиранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка*. Известия АН ССР. 1929. № 7.
37. Поливанов Е.Д. *Фонетическая система говора кышлака Икан (Туркестанский уезд)*. Известия АН ССР. 1929. № 7.
38. Поппе Н. Н. *Чувашский язык и его отношение к монгольскому и турецким языкам*. I, II, Известия Российской Академии Наук. VI серия, 1924, том 18, выпуск 12.
39. Поцелуевский А.П. *Фонетика туркменского языка*. - Ашхабад, 1936.
40. Radloff W. *Phonetik der Nördlichen Türksprachen*. -Leipzig: T.O. Weigel's Verlag, 1882.
41. Radloff W. *Zur geschichte der türkischen vocalsystems* // ИЗВѢСТІЯ ИМПЕРАТОРСКОЙ АКАДЕМІИ НАУКЪ. 1901. АПРѢЛЬ. Т. XIV, № 4.
42. Ramstedt G. J. *Zur Frage nach der Stellung des Tschuwassischen* // Suomalais-Ugrilaisen Seuran Aikakauskirja= Journal de la Société Finno-Ougrienne. – Helsinki, 1922. № 38, 1.
43. Räsänen A.M. *Über die langen Vokale der türkischen Lenhwörter im Ungarischen* // FUF. – Helsinki, 1937. XXIV, Heft 1-3.
44. Сапаров М. *Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари*. – Тошкент: Фан, 1988.
45. Teken T. *Türk dillerinde birincil uzun ünlüler*. – Ankara, 1995. – B. 11.
46. Tosun İ., Koç A. *Eski Türkçeden Türkiye Türkçesine k>g Ötümlüleşmesi / TURKISH STUDIES – International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*. – Ankara, 2016. <http://dx.doi.org/10.7827/TurkishStudies.9842>.

47. Туйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараккиёт боскичлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
48. Турсунов У. Ўринбоев Б. Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
49. Тэчмырадов Т., Худайгулыев М. Хэзирки заман туркмен әдеби дилиниң фонетикасы. - Ашгабат: Ылым, 1970.
50. Xidraliyeva Z. O‘zbek tilining Iqon shevasi. Filol. f. f. d. ... Diss. – Toshkent, 2023.
51. Худайгулыев М. Хэзирки заман туркмен дили. Фонетика. – Ашгабат: Туран, 1992.
52. Худайкулиев М., Ходжаев Б. Некоторые вопросы развития туркменского литературного языка в советскую эпоху. - Ашхабад: Ылым, 1967.
53. Хыдыров М.Н., Бегенжов К. Туркмен дилиниң фонетикасы.-Ашгабат: ТДУ, 1977.
54. Weýisow B. Türkmen diliniň taryhy. – Aşgabat, 2008.
55. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л.: Наука, 1970.
56. Щербак А.М. О происхождении первичных долгих гласных в тюркских языках // Вопросы языкознания. – Москва, 1967. № 6.

“QUTADG‘U BILIG” ASARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik va xalqaro
jurnalistika” kafedrasi tayanch doktoranti.